XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

Sirdaryo tumani,"Yoshlik" MFY O'zbekiston ko'chasi 98-uy.tel: 377-10-58, 99 699 1947, 91 103 4549

2023 - yil 8 - aprel VI-60-43-9-128-K/23 Sirdaryo tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obъektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq Sirdaryo tumanidagi nomsiz geografik ob’etkni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik obъektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq “Geografik ob’ektlarning nomlari sohasidagi ishlarini tartibga solish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 295-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 2-mart kungi 15-00447-sonli ekspert xulosalariga asosan Sirdaryo tuman markazidagi yangi barpo etilgan xiyobon nomiga ijobiy xulosa berilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 2-mart kungi 15-00447-sonli ekspert xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 2-mart kungi 15-00447-sonli ekspert xulosasida taklif etilgan xiyobon nomi 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (B.Tavbaev),

tuman Statistika bo‘limi (R.G‘aniyev), tuman Soliq inspeksiyasi (S.Ro‘ziyev), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (J.Abdullaev), tuman Qurilish bo‘limi va tegishli mutasaddi tashkilotlarga:

- mazkur qaror ilovasi asosida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar e’tiborga olinsin va mazkur qarordan kelib chiqqan holda tegishli idoraviy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (S.Jo‘raboev) mazkur qarorni “Sirdaryo” gazetasida chop etilishini hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga o‘rnatilgan tartibda joylashtirilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qarorni bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Tavbaev) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **B.Mirzaqulov**

Xalq deputatlari Sirdaryo tuman
Kengashining
2023 yil 8 apreldagi
VI-60-43-9-128-K/23-son qaroriga
1-ilova

Yangi nom berilayotngan xiyobon nomi

№	Geografik ob’ektning turi	Joylashgan o‘rni MFY	Geografik ob’ektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasiga taklif etilgan nom	Respublika komissiyasi ekspertiza xulosasi
1.	Xiyobon	Yoshlik	Nomsiz	Ezgu niyatlar	Ezgu niyat